

# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 fevral holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **318 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'ssatmay o'tgan korxonalarning ulushi **3,4 foizga ko'paydi**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **93 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar oyida Viloyatda 127 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 39 taga kamaygan.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,1 % kamaygan hamda ularning soni 7 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy Viloyatda 127 ta korxonalar yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'ssatayotgan etildi, bu esa o'tgan yilning korxona va tashkilotlar soni 318 ta (3,4 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 9478 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Guliston shahrida (32,0 %), Sirdaryo (15,5%), Sayxunobod (8,4 %) va Yangiyer (7,6 %) tuman shaxarlarida kuzatilmoqda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda



## ***Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar***


***va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi***

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,*

*2018 yilning 1 fevral holatiga)*

	<b>Ro'yxatdan o'tgan</b>		<b>Faoliyat ko'rsatayotgan</b>	
	<b>birlikda</b>	<b>jamiga nisbatan %</b>	<b>birlikda</b>	<b>jamiga nisbatan %</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>10198</b>	<b>100,0</b>	<b>9478</b>	<b>100,0</b>
Guliston shaxri	3259	32,0	3029	32,0
Sirdaryo tumani	1623	15,9	1465	15,5
Sayhunobod tumani	803	7,9	793	8,4
Yangiyer shaxri	767	7,5	724	7,6
Guliston tumani	773	7,6	719	7,6
Mirzaobod tumani	750	7,4	708	7,5
Boyout tumani	785	7,7	695	7,3
Xovos tumani	483	4,7	450	4,7
Oqoltin tumani	368	3,6	355	3,7
Sardoba tumani	344	3,4	323	3,4
Shirin shaxri	243	2,4	724	2,3


**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 92,9 % ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulishi 7,1 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari boyicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,5 % savdoda, 12,0 % sanoatda, 8,7 % qurulishda, 12,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 5,6 % tashish va saqlash, 1,8 % axborot va aloqa, 1,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 26,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

### **Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,3 f.p), savdoda (-0,8 f.p), axborot va aloqada (-0,4 f.p.dan) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+1,0 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,6 f.p.), qurulishda (+0,6 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda(+0,3 f.p.), shuningdek tashish ulushining o'sidiva saqlashda hamda boshqa faoliyat turlarida o'zgarishlar kuzatilmadi.


## Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.02.2018 y.	01.02.2017 y.	farqi (+ -)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1,3	2,6	-1,3
Savdo	26,5	27,4	-0,8
Axborot va aloqa	1,8	2,2	-0,4
Sanoat	12,0	11,0	1,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	12,0	11,3	0,6
Qurilish	8,7	8,1	0,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,2	4,9	0,3
Tashish va saqlash	5,6	5,6	0,0
Boshqa turlari	26,9	26,9	0,0

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


2018 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 89 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 22 taga yoki 24,7 % ga o'sgan.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarlarning asosiy qismi Sirdaryo tumani 37 ta (40,7 %), Guliston shahar 23 ta (25,3 %), va Yangiyer shahar 8 ta (8,8 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Mirzaobod tumani 7 ta (7,7 %), Sayhunobod tumani 5 ta (5,5 %), Oqoltin tumani 4 ta (4,4 %) va Boyovut tumani va Shirin shahrida 2 tadan (2,2 %), Guliston, Sardoba, Xovos 1 tadan (1,1 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishslashni, investitsiyalar jalb etish borasida

### **Ro'yhatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hudular kesimidagi soni, birlikda**



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 fevral holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 64 ta (71,9 %), savdoda 10 ta (11,2 %), qishloq, ormon va baliq xo'jaligi turlarida esa 5 ta (5,6 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda 3 ta (3,4 %), qurilishda 3 ta (3,4 %), va boshqa tarmoqlarda 4 ta (4,5 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarlarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa tashish va saqlash, qurilish faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



### Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 fevral holatiga Viloyatimizda faoliyat ko`rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 7547 tani tashkil qilgan. Bu ko`rsatkich 2017 yil 1 fevral holatiga qaraganda 1,5 % ga oshgan. Faoliyat ko`rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2593 tasi (34,4 %) Guliston shahriga, 1224 tasi (16,2 %) Sirdaryo tumani, 628 tasi (8,3 foizi) Sayhunobod tumani, 607 tasi (8,0 foizi) Yangiyer shahri hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 7547 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 2505 tasi (33,2 %) – savdoda, 1116 tasi (14,8 %) - sanoatda, 819 tasi (10,9 %) - qurilishda, 1113 tasi (14,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 493 tasi (6,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 527 tasi (7,0% ) - tashish va saqlashda, 158 tasi (2,1 %) - axborot va aloqa sohasida, 74 tasi (1,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 742 tasi (9,8%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


### **Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



2018 yil 1 fevral holatiga bilan 122 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 26,1 foizga kamdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Guliston shahrida (33 ta), Sirdaryo (23 ta), tumanida tashkil etilgan. Eng kam Shirin shahrida (2 ta), Sardoba tumanida (1 ta) hamda Xovos tumanida (4 ta) tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (23 ta), savdoda (35 ta), qurilishda (23 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (22 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (1 ta), axborot va aloqada (1 ta) va tashish va saqlashda (5 ta) tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 fevral holatiga 69 tani tashkil etib, ulardan 64 tasi yoki 92,8 % faoliyat yuritadi. Bu ko'satkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning umumiy soni 15,0 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 46,4 % yoki 32 tasi sanoat, 18,9 % yoki 13 tasi savdo, 8,7 % yoki 6 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,9 % yoki 11 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,4 % yoki 1 tasi axborot va aloqa, hamda 8,7 % yoki 6 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### **Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



**Viloyat statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi  
boshlig'i**  
**Nashr uchun mas'ul:** K.Yusupov  
(0367) 225-31-00

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat  
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida  
tayyorlangan**